TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 303-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 2 oktabrdagi i 685-10-0-Q/24-sonli qarorini ijrosi haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 2 oktabrdagi “Toshkent viloyatining Chirchiq, Yangiyo‘l shaharlari, Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, Zangiota, Toshkent, Chinoz tumanlarida sanitar tozalash xizmatlarini yaxshilash to‘g‘rsida”gi 685-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-,25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 2 oktabrdagi 685-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi viloyat boshqarmasining 2024-yil 2-oktabrdagi 01/05-8874-son xati, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi viloyat hududiy filialining joriy yil 2-oktabrdagi 1/780-sonli xati hamda viloyat “Toza hudud” davlat unitar korxonasining 2024-yil 2-oktabrdagi 1-451/24-son xatini inobatga olgan holda tender savdolari o‘tkazilgunga qadar Chirchiq, Yangiyo‘l shaharlari, Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, Zangiota, Toshkent, Chinoz tumanlarini viloyat “Toza hudud” DUK tomonidan maishiy chiqindilarni olib chiqish va zararsizlantirish bo‘yicha xizmatlarni 2024-yilning 2-oktabr kunidan boshlab amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shuningdek, ushbu qaror bilan:

“Zangiota Obodon” MChJ o‘rnatilgan tartibda tuzilgan bitim asosida berilgan maxsus texnika vositalari, bino inshootlar va boshqa asosiy vositalarni ikki hafta muddatda “Toza hudud” DUKga o‘rnatilgan tartibda soz holatda qaytarilishi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining viloyat boshqarmasi (B.Meliyev), “Toza hudud” DUK (I.Musayev) va “Zangiota Obodon” MChJ (X.Toirov), Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi viloyat hududiy filiali (X.Ismailov) bilan birgalikda ikki oy muddatda abonentlarning debitor-kreditorlik qarzdorligini xatlovdan o‘tkazilgan holda

tegishli ma’lumotnomalani rasmiylashtirishini (solishtirma daolatnoma v.b) ta’minlashi inobatga olinsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**